



DAVLAT TILINI O'RGATISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI

¹Yerjanova Saule Baymurzayevna

Al-Forobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

²To'ychiyeva Zuleyxa Hamroq'lovna

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

zulayxot775@gmail.com

ARTICLE INFO

Received: 04th June 2023

Accepted: 12th June 2023

Online: 13th June 2023

KEY WORDS

Yangi axborot texnologiyalari,
pedagogik texnologiya,
mustaqil ish, interfaol o'yinlar.

ABSTRACT

Maqolada o'zbek tilini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish usullari va interfaol o'yinlarning samarasi, bugungi dunyoning talab va imkoniyatlariga javob beradigan, yoshlarning tez o'zgarib borayotgan, beqaror muhitga moslashishiga imkon beradigan, yuqori darajadagi ta'limni ta'minlashga imkon berishi haqida fikr yuritilgan.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim bo'g'imi - salohiyatli, e'tiqodi mustahkam, yangicha fikrlaydigan, dunyo ayvonida bo'layotgan voqea hodisalarga o'z munosabatini erkin bildira oladigan yoshlarni tarbiyalashdir.

Til millatning ulkan boyligi va bebaho mulkidir. Mustaqillikni, istiqlolni va nihoyat davlatni takomillashtirish, xalqlarning milliy va baynalminal o'zligini anglashning o'sishi milliy tillarni har tomonlama rivojlantirishni taqozo etadi. Har bir xalqning o'z ona tili bo'lganidek, o'zbek xalqining ham o'z tili - o'zbek tili bor. O'zbek tili o'zbek millatining davlat tilidir. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi natijasida Respublikamizda istiqomat qilayotgan boshqa til vakillariga bu tilni o'qitish, o'rgatish muammolarini jadal sur'atda hal etish zarurati tug'iladi. Bunda asosiy muammo o'zbek tilini o'rgatish jarayonini tezlatishdan iboratdir. Buning uchun esa o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish tamoyillari, mazmuni va metodikasini tubdan o'zgartirish lozim.

Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiruvchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida boy tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil qiluvchi metodlar o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik o'qitish texnologiyalarni va faol metodlarni qo'llash orqali bo'lajak kadrlarni ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, yangi bilimlarni mustaqil egallash qobiliyatini rivojlantirishga erishish mumkin. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsgina o'z muammolarini o'zi mustaqil hal qila oladi va jamiyatda o'z mavqeyiga ega bo'ladi. Bunday qobiliyat esa ta'lim muassasalarida shakllantiriladi. Ta'lim sifatini oshirishning innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'qitish ta'lim mazmunining barcha to'rtta (bilim, ko'nikma, malaka, ijodiy faoliyat) komponentlarini o'zlashtirishga ijobiy ta'sir etadi. Ular o'quvchilarni maxsus fanlar uchun



juda muhim bo'lgan holatlar, ya'ni muammoni mustaqil ko'rish, uni ifodalash, yechish yo'llarini topish va yechishga imkoniyat beradi.

"Innovatsiya" tushunchasi ilk bor XIX asr oxirida paydo bo'lgan. Innovatsion muammo (innovatsiya mohiyati, innovatsiya jarayonlari tuzilmasi) nisbatan fundamental shaklda qator ilmiy ishlarda aks etgan (R.A.Mavlonova, O.Magdiyev, N.Muslimov, B.Raximov, S.Ahmadaliyev va boshqalar).

"Innovatsiya" tushunchasi inglizchadan yangilik, yangilik kiritish, yangilikni o'rganish kabi ma'nolarni aks ettiradi.

Bu tushunchalar mazmunida yangicha yondashuv, ya'ni texnologik yondashuv mavjud bo'lgani bois, rivojlanish bosqichi mohiyatiga ko'ra "innovatsion pedagogik texnologiyalar" deb aytish maqsadga muvofiq keladi.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalar tatbiqi deganda o'quv jarayonini qurish (loyihalash) texnologiyasi tushunilib, metodlar modernizatsiyasi asosida vujudga kelgan interfaol metodlarga asoslanib, ta'lim-tarbiya maqsadini amalga oshirish, erishilgan samaradorlikka ko'ra kafolatli natija olish tushuniladi.

Bu jarayon "subekt-subekt" munosabatlariga muvofiq, o'qituvchi-o'quvchi", "o'qituvchi-talaba" yoki "o'quvchi-o'quvchi", "talaba-talaba" teng huquqli faol va do'stona munosabatlarga kirishgan holda ta'lim-tarbiyaviy muammolar yechimini topishadi. Bu jarayonda asosiy e'tibor o'quvchi yoki talabaning mustaqil fikr rivojiga, ijodiy izlanishiga va shu asosidailg'or fikr ya'ni g'oyalarni ilgari surishiga tayaniladi. Ta'lim-tarbiya jarayonining subekti o'quvchi yoki talaba hisoblanib, o'qituvchi yo'nalish beruvchi va yakuniy xulosa chiqaruvchi hamda birgalikda tavsiya ishlab chiqaruvchi vazifasini o'taydi.

Bu jarayonda texnologik, tizimli va ijodiy yondashuv uyg'un holda amalga oshirilib, vaqt meyorlari tejaladi, talaba ortiqcha zo'riqmaydi, eng asosiysi mustaqil fikr, ijodiy izlanish talabaning kundalik faoliyatiga aylanib boradi.

Bugungi kunda tilga e'tibor mustaqil O'zbekiston davlati madaniy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan birini tashkil etmoqda. Bu siyosatning asosiy maqsadi, o'zbek adabiy tilining ijtimoiy huquqlari va mavqeyini to'la tiklash, adabiy tilni yanada rivojlantirish, uning til normalarini yanada boyitish, tilning xalq madaniyati va ma'naviyatining ulkan xazinasini bo'lmish lug'aviy boyliklarini avaylab - asrash, tildagi qadimiy xalqona an'analar, milliy ruhni qayta tiklash, boyitish uni himoya qilish kabilarni tashkil qiladi.

Davlat tilini o'rgatishda milliy urf-odatlar, ma'naviy boyliklar, o'zi yashab turgan Vatanga muhabbat va sadoqat kabi tuyg'ularni boshqa millat vakillari ongiga singdirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonimizning boy tarixi, madaniy merosi, milliy qadriyatlari haqidagi tushunchalarga ega bo'lgan insongina Davlat tiliga befarq munosabatda bo'lmaydi. Davlat tilini o'qitish va o'rgatish uchun ko'proq nutqiy ko'nikmalardan foydalanish kerak. Mashg'ulot davomida ko'proq og'zaki suhbatlar ham qilinadi. Atrof - muhitga, kishilarning turli xislat va fazilatlariga, xulq - atvoriga munosabat bildirish, fikrni og'zaki va yozma shaklda bayon qilish, badiiy asarlarni o'qiy olish, badiiy asarlardan parcha yodlatish va ular haqida fikr yuritish, she'rlar yodlatish, erkin mavzularda matn tuzib, og'zaki so'zlab berishga o'rgatish nutq o'stirishga katta yordam beradi. Masalan, tashqi qiyofa va xulq - atvor ko'rinishiga oid topshiriqni olaylik. Topshiriq: Quyidagi tavsiflardan foydalangan holda do'stingiz yoki tanishingizning tashqi qiyofasini tasvirlab bering:



Yoshi: yigirma atrofida, o'ttizdan sal oshgan, oltmishga yaqin, o'rta yoshda, yosh yigit, yosh qiz, ancha kekxa;

Bo'yi: baland, o'rtadan balandroq, o'rta, o'rtadan past, pastroq bo'yli, kichkina;

Qomati: qotma, ozg'in, ingichka, tik qomatli, to'la, semiz, jussali, kelishgan;

Elkasi: keng, tor, qush elka;

Ko'kragi: baland, keng;

Bo'yni: yo'g'on, kalta, uzun, ingichka;

Terisi: qoramtir, oq, qora, toza, ajin bosgan, nozik, qalin;

Sochi: uzun, kalta to'g'ri, jingalak, to'lqinsimon, tekis, jamalak, paxmoq, qalin, ingichka, och, qora, jigarrang, sariq, oq, yaltiroq;

Peshona: keng, baland, do'ng, tor, ochiq;

Qoshi: qora, och, qalin, keng, to'g'ri, qaldirg'och qanotidek, birlashna, yoysimon;

Kiprigi: uzun, kalta, egik, to'g'ri, nayzadek;

Ko'zlari: qora, charos ko'z, kulrang, zangori, yashil, chuqur, nurli, ifodali, o'ychan, ayyor, jiddiy, loqayd;

Burni: to'g'ri, ingichka, semiz, keng, dumaloq, yirik, puchuk, uzun, burgutnikidek;

Labi: qalin, ingichka, oqargan, qizil, ko'kargan;

Og'zi: katta, kichik.

Talabalarga mashg'ulot davomida o'zbek tili bilan bog'liq tushunchalarni o'rgatibgina qolmay, tilimizning qadriyat sifatida milliy boyligimiz ekanligini, mustaqillik yillarida Vatanimizda ko'p o'zgarishlar sodir bo'lganini, bular tilimizda ham o'z ifodasini topganligi aytiladi. Tilni mukammal o'rganish uchun har bir talaba o'z so'z boyligini oshirib borishi lozim. Bu jarayonni tashkil qilishda interfaol metodlarning ahamiyati juda katta. O'zbek tilini o'qitishda, o'tilayotgan darsning samaradorligini oshirishda turli xil dars usullaridan foydalanish mumkin. Bunda zamonaviy ta'lim metod va usullardan foydalanish yaxshi natija beradi. Xususan, interfaol o'yinlar mashg'ulotni qiziqarli tarzda amalga oshirishning muhim omili hisoblanadi. Interfaol o'yinli darslar jarayonida (aqliy hujum, debat, zigzak, teatlashtirilgan darslar va h.k.) talabalar e'tiborini mavzuga oid masalalarga tortish lozim. Jumladan, rusiyzabon talabalarning lug'at boyligini oshirish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Yangi so'zlar ko'rgazmali qurollar vositasida ham o'rgatiladi. Buning uchun turli xil manzarali suratlar va tarqatma materiallardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Darsda taqdimot usulidan ham foydalanish mumkin. Bunday darsni quyidagicha tashkil qilish mumkin. Interfaol metodlar qo'llanadigan mashg'ulot boshida o'qituvchi o'quv jarayoni qatnashchilarini kichik guruhlariga ajratadi. O'qituvchi guruhlarini joylarga o'tkazib, ularga tayyorlanishga vaqt ajratadi va ularni taqdimot qoidalari bilan tanishtiradi, o'quvchilarning tayyorlanishi uchun sharoit yaratadi. Tekshirish, mustahkamlash, baholashga mos tarqatma materiallar tayyorlanadi. O'qishning interfaol metodlari o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishda juda katata ahamiyatga ega. Interfaol o'qitishda o'quv jarayonida barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo'lalilar.

Interfaol usullarni o'quv jarayoniga joriy qilishning yana bir ko'rinishini "sifat-so'z turkumi" mavzusi misolida ko'rib o'tamiz. O'qituvchi mavzu va unda yoritiladigan asosiy masalalarni videoproektor orqali ekranda ko'rsatib, mavzu bo'yicha to'liq ma'lumotlarni



ko'rgazmali materiallar asosida yoritadi. Shundan so'ng o'quvchilarning guruhi kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir kichik guruhga topshiriqlar beriladi. Har bir kichik guruh o'zlarining javoblari bilan o'zaro bahslashadilar. O'qituvchi ularning fikrlarini umumlashtiradi va qaror qabul qiladi. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga mavzu yuzasidan savollar beradi:

1. Sifat deb nimaga aytiladi?
2. Asliy va nisbiy sifatlar.
3. Sifat darajalari deb nimaga aytiladi?
4. Sifatning sintaktik vazifasi haqida gapiring.

Bu savollarga har bir kichik guruh bevosita jamoa bo'lib "aqliy hujum" uyushtiradi. Bu usuldan maqsad – mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talaba (yoki o'quvchi)larni ayni bir xil fikrlashdan holi qilish, ijodiy vazifalarni echish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yig'ishdir. Natijada talabalarning faolligi oshadi.

Keyingi slaydda mutafakkir va olimlarning so'zlaridan namuna beriladi va o'quvchilar ushbu slayddan sifat so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlab so'z birikmalari va gaplar tuzib nutqlarini o'stiradilar.

Xulosa qilib aytganda, Davlat tili – o'zbek tilini OO'Yularida rusiyzabon talabalarga o'qitishga jiddiy e'tibor berishimiz lozim. Bunda mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida interfaol usullarda tashkil qilish bu borada samaradorlikka erishishning muhim shartidir. Bunday usullarni yildan – yilga yangilab borish va mashg'ulotlarning ilmiy – metodik ta'minotini innovatsion texnologiyalar hisobiga boyitish esa o'qitish natijalarini yanada yaxshilash imkonini beradi. Shuning uchun ularga alohida e'tibor qaratish, innovatsion, interfaol usullarni mukammal o'zlashtirib, dars jarayoniga tatbiq etish har bir rusiyzabon talabalarga o'zbek tilidan dars beruvchi o'qituvchi oldidagi muhim vazifadir.

References:

1. Khamrokulovna, T. Z. (2021, August). ISSUES RELATED TO SOSIOLINGVISTIK ANALYSIS (ABOUT Qul,-qul-COMPONENT NAMES). In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES (Vol. 1, pp. 48-50).
2. Khamrokulovna, T. Z. (2022). Literature is a source that reveals the truth of life. World Bulletin of Social Sciences, 10, 86-87.
3. Khamrokulovna, T. Z. (2022). On the morphological structure of the word in the uzbek language.
4. Тўйчиева, З. (2023). АБДУЛЛА ҚАҲҲОРНИНГ “САРОБ” РОМАНИДА ИБОРАЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ. Journal of Universal Science Research, 1(4), 304-307.
5. Kholbekova, M., & Tuychiyeva, Z. Articles and expressions in Hamid Olimjon's works. In Current issues of Uzbek linguistics. Republican scientific-theoretical conference materials (Vol. 3).
6. Tuychieva, Z. K. (2018). LITERATURE REVEALING THE TRUTH OF LIFE. Проблемы педагогики, (7), 77-78.
7. Туйчиева, З. Х. (2022). ПРОЯВЛЕНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ МОТИВОВ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК. MUNDARIJA/TABLE OF CONTENTS/СОДЕРЖАНИЕ, 244.



8. Tuychieva, Z. (2019). PRINCIPLES OF DIFFERENTIATING OF GENDERS IN UZBEK ANTHROPOLOGY. Bulletin of Gulistan State University, 2020(1), 75-82.
9. Khamrokulovna, T. Z. (2018). Literature revealing the truth of life. Проблемы педагогики, (7 (39)), 77-78.
10. Туйчиева, З. Х. (2015). Проявление научно-исследовательских мотивов студентов в процессе обучения психолого-педагогических наук. Austrian Journal of Humanities and Social Sciences, 1(3-4), 89-91.
11. То'uchiyeva, Z. (2023). ZULFIYA SHE'RIYATIDA FRAZEMALARNING O'RNI. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 234-237.
12. Eshbayevich, T. D. (2022). ЎҚУВ ЖАРАЁНИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ИМКОНИАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 554-560.
13. Toshtemirov, D. E. (2019). USING CLOUD TECHNOLOGY TO PROVIDE INFORMATION RESOURCES IN THE PROCESS OF DISTANCE LEARNING. Bulletin of Gulistan State University, 2020(1), 21-26.
14. Jasur Doniyor, O. G., Saidov, L., Allayorov, S. P., OMBORINI, S. X. I. M. L., & BAHOLASH, Y. B. Y. K. K. MEZONLARI//Scientific progress. 2021. № 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ma-lumotlar-omborini-yaratish-bo-yicha-kasbiy-kompetentligini-baholash-mezonlari> (дата обращения: 02.06. 2022).